

DOI: 10.5281/zenodo.15718131

Link: <https://zenodo.org/records/15718131>

SAMARALI IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

*Saidmurodov Firdavs Qaxramon o'g'li- TDIU,
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Barqaror taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda yuzaga kelgan muammolarni barham berishda davlat iqtisodiy siyosatining yangicha yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyotiga erishish, investitsion faollikni oshirish yo'lida davlat investitsiya siyosatini oqilona qo'llash dolzarb va ilmiy tadqiq etilishi kerak bo'lgan mavzulardan. Davlat investitsiya siyosati orqali moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish orqali investitsion faollikni oshirishga va iqtisodiyotdagi noxush holatlarni barataraf etishga qaratilgan bo'ladi.

Tayanch so'zlar: Iqtisodiy o'sish, davlat investitsiya siyosati, moliya, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, asosiy va aylanma kapital, ishbilarmonlik, investitsion samara

KIRISH

Jahonda investitsiyalar oqimini BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasining (UNCTAD) navbatdagi hisobotida ko'rish mumkinki 2023 yil yakunlariga ko'ra dunyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 3 foizga oshgan bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarga ushbu turdagi investitsiyalar oqimi o'tgan yilga nisbatan 9 foizga kamaygan. Bunday pasayish sur'atlari global siyosiy inqirozlar, jumladan, yuqori qarzdorlik, iste'mol va energiya resurslari narxining beqarorligi, dunyo bozoridagi moliyalashtirish talablarining keskinlashuvi, foiz stavkalarining oshishi va kapital bozorlaridagi nomutanosiblik, ayniqsa, xalqaro loyihalarni moliyalashtirish va transchegaraviy kapital harakatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro biznes va xalqaro investitsiyalar uchun global muhit 2023 yilda juda murakkab vaziyatga olib keldi⁹⁷.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomalarida "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishga jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiyalar bilan erishish mumkin" [1] deb ta'kidlab, "... olimlarimiz suv va energiyani tejash, tuproq unumdorligi va hosildorlik, geologiya, sanoat, qurilish kabi ustuvor yo'nalishlarda aniq natijalar ko'rsatishlari kerak" [2] ekanligini aytib o'tdilar. Ushbu fikrlar mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishning zarurligini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishning ob'ektiv zarurligi, nazariy jihatlar, jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bosqichlari, ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari hamda bozor iqtisodiyotini shakllantirish va uni rivojlantirish jarayonlarida milliy iqtisodiyotda innovatsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan juda ko'plab maxalliy va xorij iqtisodchi

⁹⁷ <https://unctad.org/news/foreign-direct-investment-developing-economies-fell-9-2023#>

olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Fransuz olimi P.Masse fikricha: "Investitsiyalash bugungi kundagi ehtiyojning qondirilishini manfaat yordami bilan uning kelajakda kutilayotganini, almashuv aktini o'zida ifodalaydi" [3]. Ushbu ta'rifda investitsiyaning ikki tomonlama mohiyati – resurslarga sarflar va bu sarflarning natijalari yoritib berilgan.

Dj.Keyns fikricha, investitsiya ushbu davrga daromadlar, ya'ni ehtiyoj uchun foydalanilmaydigan qismini o'zida ifodalaydi. Bu "alohida shaxs yoki korporatsiyaning eski yoki yangi mol-mulk xaridini, ya'ni yangi investitsiyalar daromad hisobiga turli ko'rinishdagi kapital mol-mulk xaridini" ifodalaydi [4].

Dj.Keyns nazariyasida investitsiya va jamg'arish o'rtasidagi aloqadorlik bitta hodisaning ikki tomoni sifatida aniq ko'rsatib berilgan. Keyns nazariyasi bo'yicha investitsiyalash mazmuni bo'yicha shunday xulosa chiqarish mumkin. Rivojlangan iqtisodiy tizimda investitsiyalash va jamg'arish kategoriyalari alohida funksiyalari bilan ajralib turadi. Jamg'armaning muayyan qismini bevosita investitsiyalash mumkin, bu asosiy jamg'arma kichik va xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari mablag'larining qolgan qismi kelajakdagi sarflar (iste'mol va investitsion) uchun iqtisodiy munosabat sub'ektlarida saqlanadi.

Iqtisodchi olimlar P.N.Zavlin, A.V.Vasilev, A.I.Knol investitsiyalar mohiyati, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi xususida: "Investitsiyalar kelgusida daromadlar va boshqa foyda olish maqsadida iqtisodiy ob'ektlarga mol-mulk va intellektual qadriyatlar shaklidagi kapital qo'yimlarning barcha turlarini qamrab oladi" [5], - deb fikr bildiradilar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoralievlar: "Investitsiyalar - daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar" [6], - deb ta'riflaydilar.

Professor N.Haydarov "investitsiyalar"ga quyidagicha ta'rif bergan: "Investitsiya mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik ob'ektiga sarflashidir" [7].


Professor Sh.Shodmonov o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida investitsiyalarga qo'yidagicha ta'rif beradi: "Investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va kuchaytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi"[8]. Bu ta'rif ham ancha ilmiy asoslangan bo'lib, investitsiya jarayonlarini amalga oshirish mohiyatini ochishga qaratilgan.

Iqtisodchi olimalardan D.Tojiboyevaning fikricha: "Investitsiya deganda, kelajakdagi natija uchun: ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi[9].

TAXLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy tadqiqotlarda "investitsiyalar", "investitsion faollik", "investitsion mexanizm", "investitsion faoliyat" va shu kabi


iqtisodiy tushunchalarga yagona bir ta'rif keltirilmagan. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda "investitsion faollik"ka yaqin bo'lgan tushunchalar: "investitsion jozibadorlik", "investitsion muhit" "investitsion imij" sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, "investitsion faollik" mustaqil kategoriya bo'lib, xo'jalik sub'ektlarining barqaror moliyaviy holatini tavsiflaydi va aniq davr uchun real resurslarining safarbar etilishini anglatadi. Buni investitsion talabni qondiradigan jarayon sifatida ham talqin etish mumkin.



1.2-rasm. Investitsion faollik omillari

Yuqorida zikr etilgan turli xil omillarning ijobiy tarzdagi amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Yana, eng muhimi, xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

Investitsion jozibadorlikni baholash uchun ikkita muhim jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Birinchisi - ma'lum bir ob'ektni investitsiyalashning investitsion jozibadorligi. Bunda aniq bir hududiy tizimda mavjud bo'lgan tarmoqlar, sohalar iqtisodiy holati tahlil etiladi. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda investitsion loyiha va dasturlar samaradorligini aniqlashning tayanch ko'rsatkichlari baholanadi.



1.3-rasm. Investitsion faollikka oid tushunchalarning o‘zaro bog‘liqlik mexanizmi

Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan boshqapilishi hozirgi kunda moliya resurslarini davlat maqsadli dactuplari acocida O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda davlat ehtiyojlarini qondirish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, davlat tomonidan ajratiladigan investitsiyalar moddiy tamoyil kampoq, deb hisoblanadi, chunki ular aksariyat holatlarda nomoddiy tomonlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. Hozirgi kunda byudjet mablag‘lari cheklanganligi sababli, ularni yuqori ulushda yo‘naltirishning iloji yo‘q. Chunki, davlatning byudjet resurslari mablag‘lari, birinchi e‘tiborda, mamlakat hududlarini qo‘llab-quvvatlashning maqsadli investitsiya dasturlari ijrosini ta‘minlashga yo‘naltiriladi. Markazlashtirilgan investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha davlat maqsadli dasturlari va davlatlararo shartnomalar ijrosini ta‘minlashga, aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishni ta‘minlash maqsadida: uy-joy, suv xo‘jaligi qurilishlariga, aholi istiqomat qiladigan joylarning muhandislik infpatuzilmasini yaratishga, davlat boshqaruvi, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, fan-ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infpatuzilmaning boshqa tarmoqlari ob‘ektlar qurilishiga, ekologik tadbirlarini amalga oshirish, tabiiy ofatlardan saqlash inshootlarga ajratiladi.

Davlat byudjeti mablag‘lari ijtimoiy soha tarmoqlarini samarali rivojlanishini tasavvur etish qiyin. Davlat byudjetidagi moliyaviy resurslarning qariyb 80 foizi ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, turar-joy va davlat qurilishi sohalari ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiriladi. Markazlashtirilgan moliya mablag‘larining qolgan 20 foizi esa, mahalliy, xopijiy va xususiy investitsiyalarni ishlab shiqarish sohasini qo‘llab-quvvatlash ushuni foydalaniladi.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020–2023 yilapda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Ko'psatkishlap	Yillap				
	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar – jami, <i>mlpd so'm</i>	210195,1	239552,6	266240,0	352124,0	493721,0
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, <i>%da</i>	34,9	32,4	29,6	33,0	36,2

O'zbekiston Respublikasida 2020–2024 yillapda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalapni tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yilda 210195,1 mlpd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib esa, 493721,0 mlpd so'mga oshgan. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalapning YaIMdagi ulushi esa, 2020 yilda 34,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, 36,2 foizga mos pavishda o'sgan. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalapning YaIMdagi ulushining eng yuqopi salmog'i 2019 yilda kuzatilgan.

Tadqiq etilgan davrda O'zbekiston Respublikasida 2018–2024 yillapda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar I nvestitsiyalapning pespublika hududlari bo'yisha taqsimlanishida ham o'zgapishlap sodip bo'lgan.

2.2-jadval ma'lumotlapidan ko'pinib tupibdiki, O'zbekiston Respublikasida 2018–2024 yilapda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2018 yilda 3769,6 ming so'mni tashkil etgan, 2024 yilga kelib esa, 13280,4 mlpd so'mga oshgan. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalapning pespublika hududlari bo'yisha taqsimlanishida ham o'zgapishlap sodip bo'lgan. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalap hajmining hududlap kesimida tahlil etadigan bo'lsak, 2018 yilga nisbatan 2024 yilda o'sish sup'ati: Sirdaryo, Toshkent shahpi, Toshkent va Buxopo viloyatlapiga to'g'pi kelgan. Eng past o'sish sup'ati esa: Qashqadapyo viloyati, Qopaqalpog'iston Pespublikasida kuzatilgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020–2024 yillapda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, (*ming so'm*)

Нудудлар	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2020 y. nisbatan 2024 y. o'sish sup'ati +; –
O'zbekiston Pespublikasi	6140,3	7015,9	7468,6	9668,8	13280,4	9510,8
Qopaqalpog'iston Pespublikasi	3710	4069,6	5225,5	6004,4	10183,0	6541,9

Andijon	3047,2	3770,4	4361,1	5410,6	8207,3	6657
Buxoro	6295	9681,7	10855,5	15442,9	23761,8	18649,4
Jizzax	8984,7	9267,9	7107,9	11138,3	15145,2	12451,3
Qashqadapyo	6214,7	4811,9	4647,7	6158,4	9165,8	3972,4
Navoiy	15604,2	15931,5	17189,8	6158,4	31359,0	20466,9
Namangan	4229,2	4588,1	4984,4	6839,0	17212,7	14220,2
Samarqand	3746	4442,4	4642,5	6385,3	6972,1	5093,8
Surxondaryo	3792,2	4176,4	4169,4	6318,5	5247,6	2399,3
Sirdaryo	8425,4	10011,5	13919,1	16954,7	11863,4	8583,2
Toshkent	7169	9538,7	12056,8	14705,6	22898,5	19000,1
Farg'ona	2916	3348,9	3917,2	5037,4	5455,3	3938,5
Xorazm	2868,2	4495,4	4517,9	6096,1	7346,2	5690,6
Toshkent sh.	19065,6	20433,9	19539,4	22644,8	28708,6	18080,8

Investitsiyalarning hududiy taqribi shu bilan tavsiflanadiki, ularning asosiy qismi nisbatan yuqori darajada rivojlangan Toshkent va Navoiy iqtisodiy hududlariga to'g'ri keladi. Ularning ulushini barcha aholi sonining 46,3 foizi, investitsiyalarning esa 50,4 foizi to'g'ri kelgan. Investitsiyalar hajmi 2023 yil 2018 yilga nisbatan Navoiy iqtisodiy hududidan tashqari, barcha iqtisodiy hududlarda barcha o'sgan. Shu narsa muhimki, o'rtacha respublika darajasiga nisbatan investitsiyalarning yuqoriroq sur'atlarida o'sishi Orolbo'y va Mipzasho'l iqtisodiy hududlarida, ya'ni rivojlanish darajasi nisbatan o'rtacha qolgan hududlarda kuzatildi. Buning natijasida mazkur hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar o'rtacha respublika ko'rsatkichlariga yaqinlashmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsion faollikni oshirish yo'nalishlari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari, ularning taqribi va bozor iqtisodiyoti sharoitida transformatsiyalashuvini taqozo etadi. Shuni, moliyaviy manbalarning taqribi ekstensiv darajada oshmaydi, balki ulardan intensiv foydalanish yo'llarini qidirish lozim. Ikkinchi tomondan esa, moliyaviy manbalardan inqiroz davrida, nafaqat daromad olish manbai sifatida, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish maqsadida noaktiv faoliyatlariga mablag' sarflashdan saqlanish lozim.

2. Iqtisodiyotdagi hududlar iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish maqsadida, ularning iqtisodiy salohiyatini baholash ko'rsatkichlariga asoslanib, mahalliy hamda xorijiy investitsiya loyihalarini respublika tuman va shaharlarini toifalarga ajratish tartibiga ko'ra ustuvor dasturlarni amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoev: Xalqimiz hammadan ziyrak va ulug'dir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi. 24.01.2020. Elektron resurs: <https://president.uz/uz/3314>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. Elektron resurs: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
3. Массе П. Критерии и методы оптимального определения капиталовложений. / Пер.с фр. – М.: Статистика, 1971. – 160 с.
4. Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. С основами аграрных рынков. Курс лекций. – М.: Ассоциация авторов и издателей. ТАНДЕМ: Изд. ЭКМОС, 1998. - 448 стр.
5. Завлин П.Н. Оценка экономической эффективности инвестиционных проектов (современные подходы). / П.Н. Завлин, А.В. Василев, А. И. Кнол. - СПб.: Наука, 1995. С. 30.
6. G'ozibekov D.G', Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. – T.: Matbuotshi, 1993. B. 6.
7. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish ushuni yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. B. 29.
8. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik –T.: Sharq, 2005.
9. Ой. Т. Астанакулов, Х.С. Асатуллаев, С.Б. Гоипназаров, Н.Ш. Батырова — Тенденции развития исламских финансов и условия глобализации. Вопросы истории. Ежемесячный журнал 5(2), 2022, ул. 259
10. Асатуллаев Х.С. Роль государственной фискальной (бюджетно-налоговой) политики в повышении занятости населения. Анналы Италии № 51/2024. ISSN 3572-2436, 11.
11. Асатуллаев Х.С. ВЛИЯНИЕ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ СТРАНЫ. Российский экономический вестник / Российский экономический вестник 2021, Том 4, №1
12. Стратегическое обеспечение учета инвестиционного процесса в инновационной отрасли Олим Т. Астанакулов, Хуршид С. Асатуллаев, Нодира И. Саидахмедова и Отамурод Т. Эргашев. Журнал перспективных исследований в области права и экономики. Осень 2019. Том X, выпуск 6(44).
13. О. Астанакулов, Х. Асатуллаев Пути повышения инвестиционной активности хозяйствующих субъектов. Общество и инновации - Общество и инновации - Специальный выпуск - 4 (2021) / ISSN 2181-1415.
14. Астанакулов О.Т., Асатуллаев Х.С. Иностранные инвестиции как фактор развития экономики. Журнал экономики и образования. 2018, № 1, стр. 120.
15. Tojiboev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchi kitob). – T.: Sharq, 2003. B.79.
16. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ma'lumotlari>.